

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» «Scientific journal of the Fergana State University» jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir:

Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

TARIX

Sh.Hakimova	
O'zbekistonda elektroenergetika sanoatining huquqiy-meyoriy asoslari	113
J.Bo'tayev	
XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida samarqand viloyati qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar.....	118
I.Bohodirov, B.Jurayev	
Turkistonda XIX asr o'rtalarida armiya va harbiy ta'lim	123
A.Yuldashev	
Davlat, boshqaruv va rahbarlik masalasiga oid tarixiy qarashlar va zamonaviy yondashuvlar.....	129
B.Ataxanov	
Mustaqillikning ilk yillarda o'zbekistonning Belarus respublikasi bilan savdo-iqtisodiy munosabatlарining o'ziga xos xususiyatlari	136
Sh.Husanova	
Qadimgi Farg'onanening samoviy tulporlari	140
N.Komilov	
Turkiston muxtoriyati bosh vaziri o'rinnbosari – Islom Shoahmedov hayoti va faoliyatining yangi qirralari.....	146
G'.Raxmonov	
Farg'ona vodiysida suvdan foydalanishniyaxshilashda suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etishning qulayliklari.....	151
O.Abdunosirova	
Iskandar Mirzo – madaniyat va san'at homiysi sifatida	155
Z.Abdullayev	
Turkistonda mol-mulk musodarasi va rekvizisiya	158
S.Istroilova, G.Karimova	
Tarix fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni loyihalashtirish.....	163

ADABIYOTSHUNOSLIK

Z.Tashtemirova, E.Gizdulin	
Lirk she'riyatning turga oid xususiyatlari	167
N.Sidikova	
Yurt tarixi va el taqdiri talqinlari	173
A.Eshdavlatova	
Rauf parfi ijodida erkin ruhning nostandard isyoni ifodasi	177
J. Xalliyev	
Ogahiylar tarixiy va lirik asarlarida falsafiy-ma'rifiy istilohlar istifodasida mushtaraklik	182
E.Qurbanova	
Yassaviy "Pirim" deb ulug'lagan zot	186

TILSHUNOSLIK

K.Yusupova	
Imperativ konstruksiyalarda so'z tartibi.....	190
Yu.Shuxratova, A.Mamajonov	
O'xshatish munosabatini ifodalovchi morfologik vositalar.....	195
A.Yuldashev	
So'z yasalishining kognitiv aspekti	198
X.Dusmatov	
O'zbek milliy so'z o'yinlarining reklama matnlarida ifodalanishi.....	204
N.Umarova, D.Madazizova	
Tilshunoslikda "argo" tushunchasi talqinlari.....	211
G.Majidova	
Til darslarida madaniyatni qamrab olish	215
L.Yo'idosheva	
Muzeylarda turli xil mashg'ulotlar orqali belgilangan jamoalar bilan munosabatlarni shakllantirish	220
N.Mamajonova	
Til darslarida lug'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish	224
G.Isakova	
"Qanotli so'z" va "sitata" tushunchalarining o'zaro farqi.....	229
Z.Alimova	
Ayrim forsiy frazeologik birliklarning o'zbek tilida qo'llanilishi xususida	233
И.Порубай	
Zamonaviy lingvistik bilimlarda "axborot texnologiyalari diskursi" belgilash ta'rifi	238

SO'Z YASALISHINING KOGNITIV ASPEKTI
КОГНИТИВНЫЙ АСПЕКТ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ
COGNITIVE ASPECT OF WORD FORMATION

Yuldashev Akmal Gulamjanovich¹

¹*Yuldashev Akmal Gulamjanovich*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti. Ingliz tili
nazariy aspektlari kafedrasini dosenti, PhD*

Аннотация

Mazkur maqolada so'z yasalishining kognitiv aspekti masalalari haqida so'z boradi. Tadqiqot maqsadi tub, yasama hamda qo'shma so'zlarning kognitiv asosini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda konseptual tahlil va kognitiv modellashtirish metodlari qo'llanildi. Kognitiv model asosida yasalgan so'zlar inson bilimining verballahushi tarzida talqin qilinadi. Shuningdek ikkilamchi interpretatsiya kognitiv faoliyat sifatida ko'rilib, lingvistik ijodkorlikka asoslanadi va biliimlarni qayta ishlashda selektivlikni o'z ichiga oladi.

Аннотация

В данной статье речь идет о вопросах когнитивного аспекта словообразования. Целью данного исследования является выявление когнитивных основ однокорневых, производных, сложных слов. В исследовании были использованы методы концептуального и когнитивного моделирования. Слова, сформировавшиеся на основе когнитивных моделей, интерпретируются как вербализация знания человека. Также, вторичная интерпретация рассматривается как познавательная деятельность, которая базируется на языковом творчестве и предполагает избирательность при переработке знаний.

Abstract

This article deals with the issues of the cognitive aspect of word formation. The purpose of this research is to identify the cognitive foundations of non-derivative, derivative, compound words. In the research is used the methods of conceptual analysis and cognitive modeling. Words formed on the basis of cognitive models are interpreted as a verbalization of human knowledge. Also, secondary interpretation is seen as a cognitive activity that is based on the linguistic creativity and involves selectivity in the processing of knowledge.

Kalit so'zlar: so'z yasalishi, tub so'z, yasama so'z, qo'shma so'z, konsept, manba maydoni, maqsad maydoni, kognitiv model.

Ключевые слова: словообразование, корневые слова, производные слова, сложные слова, концепт, область - источник, область - цель, когнитивное моделирование.

Key words: word formation, root words, derivative words, compound words, concept, source domain, target domain, cognitive model.

KIRISH

XX asr tilshunosligi so'z yasalishining struktural jihatini tadqiq qilish bilan xarakterlanadi. Asosiy e'tibor tub so'zlarning morfologik, yasama so'zlarning affiksatsiya yo'li bilan, qo'shma so'zlarning ikki va undan ortiq negizning birikuvi va ularning tarkibi qanday so'z turkumlaridan iborat bo'lishi xususiyatlarga qaratilgan edi. Ularning denotativ hamda konnotativ ma'nolari farqlangan. Ingliz faylasuf va tilshunosi Charlz Key Ogden va adabiyotshunos Ayvor Armstrong Richards tomonidan yaratilgan "semantik uchburchak" (semantic triangle) orqali ya'ni, tushuncha – so'z – predmet o'rtaсидagi bog'lanish so'zning ma'nosini yuzaga chiqarish tarzida tadqiq qilindi. So'zning mazmun plani kontekst orqali aniqlanishi xususidagi fikr va mulohazalar ilmiy jihatdan asoslandi. Xullas, tilshunoslikning ushbu bosqichida so'zning strukturaviy va ma'no munosabati o'rganildi.

Keyingi bosqichda tillarni qiyoslash metodi orqali olamning lisoniy tasviri muammolarini o'rganishga kirishildi. Mazkur terminga ilk bor L.Vaysgerber asos solib, "har bir tilda til sohibining olamga nisbatan nuqtai nazari ifodalanadi" [3, 111-112], deb ta'kidlagan edi. L.Vaysgerberdan so'ng ko'plab tilshunoslardan ushbu masalaga o'z munosabatlarini bildirdilar. G.V.Kolshanskiyning, "doimo rivojlanib turuvchi olam haqidagi bilimlar va tasavvurlarning birinchi navbatda aniq tabiiy tilda ifodalanuvchi tizimi olamning lisoniy tasviri hisoblanadi" [7, 47]. M.M.Makovskiyning qayd etishicha, shaxs olamning o'zi bilan emas, uning ifodalanishi, kognitiv manzaralari va modellari bilan munosabatda bo'ladi va olamning lisoniy tasviri olamni idrok qilayotgan xalq mentaliteti,

TILSHUNOSLIK

madaniyati hamda tili orqali namoyon bo'ladi [22, 16]. Leksikaning tezaurusli o'rganilishi Yu.N. Karaulov ishlarida atroficha taqdim etilgan ideografik lug'atlar tuzish tamoyillarini aniqlash munosabati bilan boshlangan [6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Umuman olganda til, ayniqsa leksika, ko'p avlodlarning, u yoki bu til sohiblari bo'lgan insonlarning lisoniy tafakkur ob'ektivlashtirishining asosi shaklini ifodalaydi. Inson uchun har qanday til sohibi sifatida real olam haqiqiy voqelikdir, va voqelikni hissiy idrok qilish darajasining verbal tizimini I.P. Pavlov ikkinchi signal tizimi deb nomlagan [12]. Ushbu idrok qilish va real voqelikni tasavvur qilish darajalari quyidagilarga mos keladi: olamning umumi tasvirini (modelini) tasavvur qilish (hayotiy va ilmiy), olamni sub'ektiv tasavvur qilish va til yordamida ob'ektivlashtirilgan olam tasviridir [14,114].

So'z ko'p hollarda tushunchaviy hamda tovush tizimiga ega bo'lgan, gapning sintagmatik a'zosi bo'lgan, u yoki bu morfologik shaklda namoyon bo'ladigan va ushbu shakllarning yig'indisi, uning lisoniy reprezentativ paradigmasi va pragmatik paradigmalarini hosil qiladigan konseptning lug'aviy reprezentanti hisoblanadi. So'z yasalishiga kognitiv yondashuv asosida esa Ye.S. Kubryakova yozganidek, "so'z ob'ekt haqidagi bilimlarning bir qismini aks ettirib lug'atlarda qayd qilinadi – zarur bo'lsa ob'ektni yangitdan his etish yoki uning qo'llanilishidagi o'zgarishlarni aks ettiradigan yangi ma'nolarda ishlatilishi mumkin va aynan belgi bilan bog'liq ob'ekt haqidagi har qanday ensiklopedik bilimlarni mujassamlash mumkin, ammo lug'at uchun so'zni namunaviy kontekstlar va doiralarda ishlatilishi bilan bog'liq bilimlar saralanadi. Shunday qilib so'zning ichki leksikonidagi so'z boyligining reprezentatsiyasi uning ortida doimo lisoniy belgi va uning interpretantlari sifatida so'z haqidagi ulkan bilimlar yig'indisi bilan birgalikda ob'ekt haqidagi bilimlar majmuasi ham turadi" [8, 65].

M.V. Nikitinning fikriga ko'ra, "sub'ektiv qiziqishlar ob'ektiv bilim bilan oziqlanadi" [11,31]. Bu kognitologlarning leksik ma'no qotib qolgan narsa emas degan fikrlarini tasdiqlaydi. V. fon Gumboldt qayd etganidek, "so'z – bu hissiy qabul qilinadigan predmetning ekvivalenti emas, balki so'z – u kashf etilgan muayyan vaqtida nutq yaratish akti davomida qanday idrok etilganligining ekvivalentidir" [4,103]. So'zning kengaytirilgan semantik tuzilishiga uning stilistik tarkibiy qismi ham kiradi. Stilistik jihatdan belgilangan so'zlarni mazmunan "muloqotning muayyan sharoitlarida so'zning o'rinci, maqbul va optimal bo'lganligi va uning ma'lum bir funksional uslubga xosligi haqidagi ahborotni" beradigan birlıklar sifatida belgilash mumkin [9,187]. Anglashiladiki, ushbu mazmundorlik avvalombor "muloqot doiralari" bo'lgan aloqa bilan xarakterlanadi. Ularning inson tomonidan interpretatsiya qilinishi muloqotning ijtimoiy jihatdan muhim bo'lgan doiralarni lisoniy vositalar orqali aks ettirishga imkoniyat beradi. Tabiiyki, til inson muloqotining barcha shakl va holatlarini aks ettira olmaydi. Ammo kommunikativ jihatdan eng muhim bo'lgan muloqot doiralari u yoki bu lisoniy vositalar tomonidan belgilab chiqilgan bo'ladi. Bunda Yu.S.Stepanov qayd etganidek, muloqotning turli doiralari bilan ifodalangan tildan holi bo'lgan voqelikka yo'naltirish "mavjud lisoniy vositalarni tanlash va kombinatsiyalash sub'ektiv tamoyili bo'lgan aloqa bilan birga sodir bo'ladi" [21,494].

So'z yasalish muammolarini kognitiv yondashuv asosida tadqiq qilishda kognitiv jarayonlardan konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishning til vositasidagi o'zaro aloqalariga e'tibor qaratiladi. Konseptuallashtirish jarayonida inson doim o'zaro ta'sirda bo'lgan atrofdagi olamdan qabul qilinayotgan butun axborotga ishlov va baho berishni nazarda tutadi. Uning kategoriyalash bilan chambarchas bog'liqligini Ye.S. Kubryakova quyidagicha farqlaydi "konseptuallashtirish jarayoni umuman olganda qandaydir ma'lum bir ko'rib chiqish darajasi uchun eng oxirgi hisoblangan inson tajribasi birlıklarini ularning ideal mazmun ifodasini ajratishga yo'naltirilgan bo'lib kategoriyalash jarayoni esa "undan ko'ra ko'proq u yoki bu jihatdan o'xshashlikni namoyish qiladigan birlıklarni birlashtirishga yo'naltirilgan, ammo albatta ushbu birlıklarni kategoriyaning asosi qilib olingan konseptlar bilan solishtirilgan holda amalga oshiriladi" [8,319].

Kategoriyalash nafaqat idrok qilish, ob'ektning qandaydir sinfga tegishligini belgilovchi jarayon sifatida, balki "kategoriyalarni tahlil qilinayotgan hodisalarda aniqlangan va ularga o'xshash bo'lgan analogik mohiyatga oid belgi yoki sifatlar bo'yicha shakllantirishda va ajratishdagi murakkab jarayon" sifatida tushuniladi [8,307].

V.V. Ivanitskiy ta'kidlaganidek, birlamchi va ikkilamchi konseptuallashtirish va kategoriyalarni ajratishda real olamning belgi va sifatlarini aks ettiradigan birlamchi jarayonlar til olamiga qaratilgan bo'lsa, aniq bir tilning belgi va sifatlarini qamrab oladigan ikkilamchi jarayonlar til haqidagi bilimga yo'naltirilgan bo'ladi [5].

Ikkilamchi kategoriyalashirish verballahsgan bilimga murojaat etishni nazarda tutadi, ya'ni bu kategoriyalash egallangan tajriba asosida amalga oshiriladi. Uning mohiyati shundaki, lisoniy birliklar uni amalga oshirish jarayonida o'zlarining kategorial mansubligini o'zgartira oladi. Birlamchi kategoriyalashda birliklar ularning kategoriyasiga nisbatan namunaviy bo'lgan sifatlarga ega bo'ladi va undan farqli o'laroq ikkilamchi kategoriyalashirish faqat boshqa kategoriya a'zolariga xos bo'lgan vazifalarni bajarishga imkon beradigan ma'lum bir sharoitlarda amalga oshadi. Bunda ma'nosi ko'chimga uchragan lisoniy birliklar yangi kategorianing periferiyadagi tarkibiga tegishli bo'ladi. Verballashgan bilimga takroran murojaat qilish orqali ko'chma ma'noli so'zlarni asoslaydigan birliklarning birlamchi ma'nolaridan ajralib turadigan kategorial ma'nolarga ega bo'ladi.

N.N. Boldyrev qayd etganidek, "aynan lisoniy shakllar va tildan foydalanish tajribasi insonga tabiat, narsalar, g'oyalarni yo'naltirishga yordam berib, idrok etish va atrofdagi olamga baho berish orqali olamni interpretatsiya qilish modellarini shakllantiradi" [2, 36]. Kognitiv tadqiqot vositalarini tashkil etuvchi lug'atlar o'zlarining umumiyligida lisoniy shakllarni ham, lisoniy tajribani ham umumlashtiradi. Ko'pgina zamонавија lug'at loyihalari asosida chuqur mental munosabatlarni aks ettiruvchi tilni leksikografik parametrlashtirish g'oyasi yotadi. Aynan lug'atlarda "madaniy referensiya qobiliyati hamda tabiatni kognitiv bo'lgan lisoniy mohiyatlarni madaniy interpretatsiya qilish taomilining keng ko'lamligini" taqozo qilishini hisobga olish lozimdir [15, 23]. Asosan madaniyatning ifodalanishini lug'atlar tarkibida berilgan ma'nosi ko'chimga uchragan til birliklarida ko'rish mumkin, chunki bunday til birliklari insonning madaniy bilimiga asoslanadi. Ma'lumki, ko'chma ma'noli so'zlar asosida metafora, metonimiya, sinekdoxa, jonlantirish, o'xshatish kabi stilistik uslublar yotadi. Struktur tilshunoslikda bularning barchasi stilistik vositalar deb yuritiladi. Endilikda esa metafora hamda metonimiya konseptual maqomga ega modellar hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslik doirasida tub o'zgarish qilgan hamda ilmiy asos sifatida tan olingen J.Lakoff, M.Jonsonlarning "Metaphors we live by" asari sanaladi. Olimlar tomonidan konseptual metaforani tadqiq qilishda ikkita kognitiv maydon, ya'ni *manba maydoni* (source domain) hamda *maqsad maydoni* (target domain) [20, 195] asosida tahlil amalga oshiriladi. Ma'lumki, konseptual metaforalar ortida freym va ssenariy o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchi yotadi. *Manba maydoni* insonning tajribasi orqali borliqni idrok etishdagi aniq bilimlar yig'indisi sanaladi. *Maqsad maydoni* esa nisbatan kam oydinlashgan, aniqlashgan muqarrar bilimdir. Masalaga oydinlik kiritadigan bo'lsak, metafora orqali ma'no ko'chishi sodir bo'lganda inson til lug'at tarkibidagi mavjud birliklar asosidagi egallagan bilimidan foydalanadi.

Konseptual metonimiya ham V.Kroft va D.Kruzlar fikriga ko'ra, ikkita kognitiv maydonni, ya'ni *vosita maydoni* (vehicle domain) va *maqsad maydonini* (target domain) o'z ichiga oladi. Ularning fikricha, metonimiyyada *vosita maydonining* vazifasi faqat *maqsad maydoni* tuzilishini aniqlashdan iborat [16, 193].

Metonimiya, metafora singari konseptual strukturalar o'zgarishining bazaviy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday taklif ilk bor J.Lakoff va M. Terner tomonidan ilgari surilgan edi va ular ko'plab misollar asosida biz fikrلайдиган va harakat qiladigan konseptual tizimning o'zi fundamental ravishda tabiatan metaforik hamda metonimik asosga ega ekanligini ko'rsatib berdilar. Metafora va metonimiya nafaqat tilga, balki fikrlashimizga ham kirib boradi.

Keyinchalik J. Lakoff metonimiya insonning konseptual tizimida ideallahsgan kognitiv model yoki konseptual struktura sifatida mavjudligini ko'rsatdi, uning ayrim unsurlari o'rtasida o'zaro almashish munosabati mavjud [19, 78]. Aytish mumkinki, metonimik modelga ko'ra konseptual integratsiya shunisi bilan belgilanadiki, konseptlarning o'zaro aloqasi ular qayd etgan vogelik mohiyatlarining qo'shaloq uchrashi in'ikosi sifatida assotsiatsiyalanishi asosiga qurilgan bo'ladi.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy vazifasi til va bilim tuzilmalari o'rtasidagi korrelyatsiya va bog'liqlikni tadqiq qilishdan iborat [8, 9]. Hozirda jahon tilshunosligida ham so'z yasalashining kognitiv aspektini tadqiq qilish yuzasidan talaygina ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, so'z yasalashida derivatsion jarayonlarni tadqiq qilish Ye. M. Pozdnyakova, L.V.Babina [13. 1.]

TILSHUNOSLIK

tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, konseptual integratsiya nazariyasiga (blending) Fauconnier, Gilles, and Mark Turner [18] asosan kognitiv tahlil metodi ilmiy isbotini topdi.

Kognitivistlarning fikricha, so'z yasalish jarayonlarini o'rganish inson omilini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi va so'zning shakllanishi bilish sub'ekti va bilish ob'ektining faol o'zaro ta'sir natijasidir. E.S.Kubryakovaning fikriga ko'ra, so'z yasalish jarayonlarini o'rganishga kognitiv yondashuv, bir tomonidan, yasama so'z va "ong tuzilmalari yoki bilim tuzilmalari" o'rtaсидаги bog'liqlik va munosabatni aniqlashni o'z ichiga oladi.

NATIJALR VA MUHOKAMA

Hodisani interpretatsiya qilish konseptuallashtirishning aniq paytida individ ongida ustun bo'lgan u yoki bu ehtimoliy tavsifga nisbatan amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, voqeani prototipik jihatdan nofaol ishtirokchilarga yozib qo'yilayotgan faol harakat sifatida konseptuallashtirish uning aksionallik konsepti doirasida sub'ektiv anglanishini ko'rsatadi. Bu qayta anglash kognitiv mexanizmlarining faollashuvi hisobiga amalga oshiriladi. Birinchi navbatda bu faollik xarakteristikasini jonsiz aniq-predmetlik mohiyatlarga, hamda ichki energiya va harakatlarni mustaqil amalga oshirish qobiliyatidan mahrum qilingan aniq-predmetlik mohiyatlarga ko'chirilishini ta'minlab beradigan konseptual metonimiya va konseptual metafora mexanizmlari sanaladi [10, 457].

Tub so'zlar:

So'z yasalishining kognitiv jihatini tadqiq qilish avallombor bazaviy konseptni aniqlash bilan belgilanadi. Quyida tub so'zlar tahlili J.Lakoff tomonidan taqdim etilgan *manba maydoni* hamda *maqsad maydoni* asosida amalga oshirildi. Barcha hayvon turlarini HAYVON bazaviy konsepti o'zida mujassamlashtiradi *tulki, bo'ri, ayiq, cho'chqa* kabi. Inson olamni idrok etish jarayonida deyarli har bir hayvonning xarakteri, ko'rinishi, xatti xarakati va boshqa jihatlarini o'rganadi hamda o'rnii kelganda inson xarekteri va ko'rinishini ushbu hayvonlar bilan qiyoslaydi va nomlaydi.

Ushbu tadqiqot metodi orqali tub so'zlarning kognitiv tahliliga e'tibor qaratish lozim. Masalan, QUSH bazaviy konseptining kognitiv maydonidan o'r'in olgan o'zbek tilidagi **burgut qushning nomi ko'chimga uchrab**, *yovuz odam* ma'nosи hamda *jasur, qaytmas, epchil insonni* anglatadi [O'TIL I 2006: 376]. Rus tilida mazkur qush nomi bilan mag'rur, jasur inson ifodalanadi *oper* – о гордом, смелом, сильном человеке [TCРЯ 2011: 1132]. Ingliz tilida xech kimga foydasi tegmaydigan ahmoq inson *turkey* (kurka) – a useless or silly person [LDELС 2006: 1491] so'zi bilan ifodalanadi. Keltirilgan misollarda QUSH konsepti konseptual metafora orqali *manba maydoni* vazifasini, INSON konsepti esa *maqsad maydoni* vazifasini o'taydi. Konseptlarni bosh xarflar bilan yozilishining asosiy sababi shundaki, ularning ortida kontekstual ma'noning mavjudligidir [16, 191].

Yasama so'zlar:

Yasama so'zlarning kognitiv modeli propozitsiya ko'rinishiga ega bo'ladi. Propozitsiya konseptlarni bog'lovchi hamda so'z yasash modeli analogi sifatida bilim reprezentatsiyasi hisoblanadi [8]. Propozitsiya tarkibida uning kesimi va aniqlashtiruvchi konsept bo'ladi. Propozitsiyani aniqlashda avallombor umumlashtiruvchi kesim aniqlanadi. Kognitiv modellar til sohibining olamni idrok etish jarayonida qanday kognitiv mexanizmlar faol ishtirok etishiga aniqlik kiritadi.

Yasama so'zlarning kognitiv tahlili, Ye.S.Kubryakova ta'biri bilan aytganda, onomasilogik kesimni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Yasama so'zlarning ushbu yondashuv asosida tahlili muayyan bir kesim orqali turli yasama so'zlarni xosil bo'lishini nazarda tutadi. Masalan: -er suffiksini qo'shish bilan ingliz tilida quyidagi kognitiv model PERSON – MAKE – OBJECT (INSON – YaRATADI – OB'YEKT) orqali yasaladi *forger* (firibgar) – person who makes a copy of something in order to deceive [UDDW 2016: 305], *furrer* (mo'ynachi) – person who makes or sells clothes made from fur [UDDW 2016: 323], *jeweler* (zargar) – person who makes or sells jewelry [UDDW 2016: 448], *modeler* (modeler) – person who makes tiny copies of things [UDDW 2016: 549], *roofer* (tunukachi, tom yopuvchi usta) – person who makes or repairs roofs [UDDW 2016: 785].

Rus tilida **-щик, -ник** ot yasovchi suffikslari bilan ЧЕЛОВЕК – ИМЕТЬ ДЕЛО С – ОБЪЕКТОМ kognitiv modeli bo'yicha **грузчик** (yuk ortuvchi va tushuruvchi ishchi) – рабочий, занимающийся выгрузкой [TCРЯ 2011: 340], **зеленищик** (ko'katchi, ko'katfurush) – торговец зеленью [TCРЯ 2011: 545], **каменищик** (g'isht teruvchi usta) – рабочий, специалист по кирпичной, каменной кладке [TCРЯ 2011: 632], **лыжник** (chang'ichi) – спортсмен,

занимающийся лыжным спортом, а также вообще тот, кто ходит, идет на лыжах [TCPЯ 2011: 816], мебельщик (mebel yasovchi) – мастер, изготавливающий мебель; работник мебельного производства [TCPЯ 2011: 846] yasama so'zlar yasalgan. O'zbek tilida -chi suffiksi bilan ham yasama so'zlar ushbu kognitiv model orqali yasaladi. Bo'zchi – bo'z to'quvchi kosib [O'TIL I 2006: 399], bo'yochi – ip, ipakni bo'yovchi, ularga rang beruvchi usta, rangvorchi. Sirkor usta, uy sirlovchi, bo'yovchi mutaxassis [O'TIL I 2006: 396], tarixchi – tarix, solnoma yozuvchi [O'TIL III 2007: 682], temirchi – temirni bolg'alab, undan turli buyumlar yasaydigan hunarmand [O'TIL IV 2008: 62], tunukachi – tomga tunuka qoquvchi mutaxassis [O'TIL IV 2008: 192], gilamdo'z – gilam to'quvchi [O'TIL I 2006: 501], pichoqchi – pichoq yasovchi hunarmand, pichoqsoz usta [O'TIL III 2007: 270], sandiqchi – sandiq, quti yasovchi [O'TIL III 2007: 439], yilqichi – yilqichilik bilan shug'ullanuvchi, yilqi yetishtiruvchi [O'TIL II 2006: 269].

Qo'shma so'zlar:

Qo'shma so'zlarning kognitiv tahlilida esa ikki bazaviy konseptning birikuvidan yangi konsept hosil bo'ladi. CONFLICT (nizo) hamda ANIMAL (hayvon) konseptlarining integratsiyasi natijasida ingliz tilida *tajribali askar* yoki *siyosiy arbob warhorse* (war – urush, horse – ot) – someone who has a lot of experience of dealing with difficult problems, for example an experienced politician or soldier [OALD, 2010: 1734] yasalishida *manba maydoni* vazifasini o'taydi, *maqsad maydoni* esa PERSON (inson) sanaladi. O'zbek tilida bunday kishilarga nisbatan *ko'pni ko'rgan*, *boshidan ko'pnarsa o'tgan*, *tajribaga ega* birliklari qo'llanadi. O'zbek tilida poyasidan supurgi qilinadigan, doni qizil, boshoqli o'simlikning nomi *oyimsupurgi* bo'lib bu qo'shma so'zning ma'nosi ko'chimga uchrab, muloyim odamni anglatadi [O'THQO'L 2019: 165]. Ushbu misolda INSON hamda O'SIMLIK bazaviy konseptlari *manba maydoni* bo'lib, INSON konsepti *maqsad maydoni* sanaladi. Rus tilida qo'lini sovuq suvgaga urmaydigan odamni белоручка – человек, который чуждается физической или вообще трудной работы [TCPЯ 2011:75] deb ataydilar. Mazkur ko'chma ma'noli qo'shma so'z yasalishida RANG va TANA A'ZOSI bazaviy konsepti *manba maydoni* INSON *maqsad maydoni* sanaladi.

XULOSA

Xulosa o'rnidida aytish mumkinki, idrok etilayotgan voqelik ob'ektivlashuvini o'z ichiga olgan so'z mazmuni inson tomonidan kommunikativ jihatdan muhim bo'lgan belgilar sifatida interpretatsiya qilgan belgilarini xisobga olgan holda ta'riflanadi. Bu borada so'zning semantik tuzilmasi turli interpretatsiya qilinadigan konseptual maydonlarning lisoniy reprezentanti hisoblanadi. Bu holda interpretatsiya olamni anglashning eng muhim jihatni sifatida ko'rib chiqilib kommunikativ va kognitiv vazifalar bilan bir qatorda tilning asosiy vazifalariga kiradi.

Tahlilga tortilgan misollardan ko'rindiki, so'z yasalishining kognitiv aspekti kognitiv model va kognitiv mehanizmlar orqali shakllanadi. Ma'nosi ko'chimga uchragan til birliklari ikkilamchi konseptuallashtirish hamda ikkilamchi kategoriyalashtirish jarayonlari orqali ikkilamchi interpretatsiya hosilasi hisoblanadi. Tub so'z va qo'shma so'zlarda bazaviy konseptning *manba maydonidan maqsad maydoniga* o'tishida kognitiv mehanizmlardan konseptual metafora hamda konseptual metonimiyalar yetakchilik qiladi. Yasama so'zlarning kognitiv asosini aniqlashda umumlashtiruvchi kesim bazaviy konsept hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бабина Л.В. Когнитивные основы вторичных явлений в языке и речи. – Тамбов-Москва: Изд-во ТГУ им. Г.Р. Державина, 2003. – 246 с. (Babina L.V. Cognitive basis of secondary phenomena in language and speech. - Tambov-Moscow: Publishing House of TSU named by G.R. Derzhavina, 2003. - 246 p.)
2. Болдырев Н.Н. Роль языка в структуровании сознания // Когнитивные исследования языка. 2015. Вып. XXII. С. 34-39 (Boldyrev N.N. The role of language in the structuring of consciousness // Cognitive Studies of Language. 2015. Issue. XXII. P. 34-39)
3. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа / пер. с нем., вступ. ст. и comment. О.А.Радченко. Изд. 2-е. Испр. и доп. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 232 с. (Weisgerber Y.L. Native language and the formation of the spirit / transl. from german, intro. art. and comment. O.A. Radchenko. Ed. 2nd. Correct. and additional - Moscow: Editorial URSS, 2004. - 232 p.)
4. Гумбольдт В. Избранные труды по языкоznанию. М.: Прогресс, 1984. – 400 с. (Humboldt V. Selected works on linguistics. M.: Progress, 1984. - 400 p.)
5. Иваницкий В.В. О категориях языка денотативного и сигнификативного типа // Вестн. НовГУ. Сер. Гуманитарные науки: история, литературоведение, языкоznание. Вып. 15. 2000. С. 96-98. (Ivanitsky V.V. About language categories of denotative and significative type // Vestn. NovGU. Ser. Humanities: history, literary criticism, linguistics. Issue. 15. 2000. P. 96-98.)

TILSHUNOSLIK

6. Карапулов Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. М., 1981. – 367 с. (Karaulov Yu.N. Linguistic construction and thesaurus of the literary language. M., 1981. - 367 p.)
7. Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке. – Москва: Наука, 1990. – 108 с. (Kolshansky G.V. An objective picture of the world in cognition and language. - Moscow: Nauka, 1990. - 108 p.)
8. Кубрякова Е. С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. М.: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с. (Kubryakova E. S. Language and knowledge: on the way of obtaining knowledge about the language: parts of speech from a cognitive point of view. The role of language in the knowledge of the world. M.: Languages of Slavic culture, 2004. - 560 p.)
9. Кузнецова Э.В. Лексикология русского языка. М.: Высшая школа, 1989. – 216 с. (Kuznetsova E.V. Lexicology of the Russian language. M.: Higher school, 1989. - 216 p.)
10. Магировская О.В. Интерпретативная сущность когниции // Когнитивные исследования языка. 2016. Вып. XXIV. С. 450-460 (Magirovskaya O.V. Interpretive Essence of Cognition // Cognitive Studies of Language. 2016. Issue. XXIV. pp. 450-460)
11. Никитин М.В. Курс лингвистической семантики. СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2007. – 819 с. (Nikitin M.V. Course of linguistic semantics. SPb.: Publishing house of the Russian State Pedagogical University named by. A.I. Herzen, 2007. - 819 p.)
12. Павлов И.П. Физиология. Избранные труды. – 2-е изд., стер. – Москва: Издательство Юрайт. 2019. – 394 с. (Pavlov I.P. Physiology. Selected works. - 2nd ed., erased. - Moscow: Yurayt Publishing House. 2019. - 394 p.)
13. Позднякова Е.М. Категория имени деятеля в пути ее синхронного развития в когнитивном и номинативном аспекте (на материале английского языка) Москва, 1999. – 34 с. (Pozdnyakova E.M. The category of the name of the figure in the way of its synchronous development in the cognitive and nominative aspect (on the material of the English language) Moscow, 1999. - 34 p.)
14. Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира / Б.А. Серебренников, Е.С. Кубрякова, В.И. Постовалова и др. - М.: Наука, 1988. – 216 с. (The role of the human factor in language: Language and picture of the world / B.A. Serebrennikov, E.S. Kubryakova, V.I. Postovalova and others - M.: Nauka, 1988. - 216 p.)
15. Телия В.Н. Первоочередные задачи и методологические проблемы исследования фразеологического состава языка в контексте культуры // Фразеология в контексте культуры. М.: Языки славянской культуры, 1999. С. 13-24 (Teliya V.N. Primary tasks and methodological problems of the study of the phraseological composition of the language in the context of culture // Phraseology in the context of culture. M.: Languages of Slavic culture, 1999. P. 13-24)
16. Croft W. and D. Alan Cruse. Cognitive Linguistics. – New York: Published in the United States of America by Cambridge University Press, 2004 – 374 p.
17. Dirk Geeraerts Cognitive Linguistics: Basic Readings. Mouton de Gruyter Berlin / New York 2006. – 497 p
18. Fauconnier, Gilles, and Mark Turner. Conceptual Integration Networks. // Cognitive Science – 1998, 22(2) P. 133-187.
19. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 614 p.
20. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We live by. – The University of Chicago Press, 1980. – 242 p.

LUG`ATLAR

21. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. 2-е репринтное издание Лингвистического энциклопедического словаря 1990 г. - Москва: Большая Российская энциклопедия, 1998. - 687 с. (Big encyclopedic dictionary. Linguistics. 2nd reprint edition of the Linguistic Encyclopedic Dictionary 1990 - Moscow: Great Russian Encyclopedia, 1998. - 687 p.)
22. Маковский М.М. Сравнительный словарь мифологический символики в индоевропейских языках: Образы мира и миры образов. – Москва: Владос, 1996. – 416 с. (Makovsky M.M. Comparative Dictionary of Mythological Symbolism in Indo-European Languages: Images of the World and Worlds of Images. - Moscow: Vlados, 1996. - 416 p.)
23. Маматов. Н. Ўзбек тилидаги ҳозирги кўшма сўзлар лугати. – Т.: Fan va texnologiya. 2019. 368 б. (Mamatov. N. Dictionary of modern compound words in the Uzbek language. - T.: Science and technology. 2019. 368 p.)
24. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка М.: Мир и Образование, Оникс, 2011. – 736 с. (Ozhegov S.I. Explanatory Dictionary of the Russian Language M.: World and Education, Oniks, 2011. – 736 p.)
25. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 1 – жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б. (Explanatory dictionary of the Uzbek language. Volume 1. – Tashkent: The national encyclopedia of Uzbekistan, 2006. – 680 p.)
26. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2 – жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 672 б. (Explanatory dictionary of the Uzbek language. Volume 2. – Tashkent: The national encyclopedia of Uzbekistan, 2006. – 672 p.)
27. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 3 – жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 688 б. (Explanatory dictionary of the Uzbek language. Volume 3. – Tashkent: The national encyclopedia of Uzbekistan, 2007. – 688 p.)
28. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 4 – жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 608 б. (Explanatory dictionary of the Uzbek language. Volume 4. – Tashkent: The national encyclopedia of Uzbekistan, 2008. – 608 p.)
29. Longman Dictionary of English Language and Culture. New edition. – London: Pearson Longman, 2006. – 1620 p.
30. Martin Manser Useful Dictionary of Derived Words. Global ELT. 2016 – 1092 p.
31. Oxford Advanced Learner's Dictionary. Eighth edition. – UK / India. Oxford University Press, 2010. – 1796 p.

(Taqrizchi: A.Mamajonov – Filologiya fanlari doktori, professor)